



Vincent Willem van Gogh

2022-yil 20-aprel №4



TO QUYOSH SOCHGAYKI NUR...

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi

ZBEGIM

18-19
RAMAZON
Ro'za turtish
Alloh taologa
qilinadigan
ibodatdir

10-11
DUEL
Ona, men qaytaman bolaligimga,
Menga yo'l ko'rsatar issiq non isi.
Ana ko'rayapman jajji qizchaniing
Tuproqii ko'chadan ketmabdi izi.

14-15
**YOSH
TARJIMON**
MARINA SVETAYEVANING
she'ri
Rus tilidan Olohyor
ERKINOV tarjimasi

4-5
QODIRIY
MILLATIMGA
BIR QAROR

6-7
**MENKIM,
AMIR TEMUR**
Ilm-fan va madaniyatning
butun musulmon
olamida yangidan gurkirab
rivojlanishi Amir Temur
nomi va faoliyati
bilan uzviy bog'liqdir.

12-13
NASR
QOQIGUL
CHEGARA
ENG KATTA ORZU
QUSH UYASI

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.



Ijod maktablari faoliyat boshlaganiga, tarix qarichida o'lchasak, ko'p bo'lgani yo'q. Hamma qatori ilk qadamlardanoq yelkamizda katta mas'uliyat yukini his qildik, bu ham bo'lsa, millat masalasi.

Ta'lim birlamchi masala ekani kunday ravshan, lekin millat sajiyasi, o'zlik, sharqona tarbiyat, hazrati inson tushunchasi undanda ko'lamli, o'ta dolzarb masala ekanligini bugungi zamonaviy dunyoda ich-ichimizdan his qilib turibmiz.

Maktabimizda "O'zbekim" radiosi hamda qo'lingizdagi ushbu "O'zbekim" jurnali faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kichik bo'lsa-da, ezgu maqsad yo'lida yana bir qadam tashlash arafasidamiz. «O'zbekim» ko'rsatuvi. Uchta loyiha - radio, gazeta va ko'rsatuvni bir nom ostida birlashtirdik. Bunday nomlanish ham bejiz emas. Axir, jilg'alar yig'ilib, daryo bo'lgusi.

Bugun iqrormiz shuki, bolaga faqat bilim berish bilan, «aqli» bolalarni kamol toptirish bilan «olam guliston» bo'lib qolmas ekan.

Vaholanki, bu qarash biz uchun yangilik emas.

Axir, bizning ma'rifatli, mardona bobolarimiz



O'Z



ZON

etish bilan birga kishi badanida to'planib qolgan turli keraksiz moddalar, yog'lar, tuzlar va boshqa narsalarni ham ketkazadi. Zamonaviy meditsinada ochlik va parhez bilan davolash orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Demak, Ramazon ochlik, tashnalik, nafsni tiyish bilan ulkan natijalarga erishiladigan buyuk oydir.

Hijriy-qamariy yilning o'n ikki oyi tartibi bilan muharram, safar, rabiul avval, rabiul oxir, jumodul avval, jumodul oxir, rajab, sha'bon, ramazon, shavval, zulqa'da va zulhijja deb ataladi. Ramazon oyi shu hijriy-qamariy yilning 9-oyi bo'lib, bu yil hisobi milodiy 622-yilning 16-iyuli juma kunidan boshlanadi. Shu kuni Muhammad alayhissalom Makka shahridan Madina shahriga hijrat qilganlar (ko'chganlar). Milodiy yil hisobi Iso alayhissalomning tug'ilgan kunlaridan hisoblanadi. Shu o'rinda Ramazon oyining boshlanishi nega yilning bir xil vaqtiga to'g'ri kelmaydi, degan savol tug'ilishi mumkin.

Ma'lumki, Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish vaqti bir yilga teng va bu 365 kun-u 6 soatdan iborat va bu shamsiy yil hisobi deyiladi. Qamariy yil hisobi Oyning ketma-ket kelgan ikki bir xil fazasi orasida o'tgan vaqt - sinodik oy (29,5306 kun) davriga asoslangan. 12 oydan iborat bir qamariy yil 354 kun-u 9 soatdan iborat. Demak, hijriy qamariyning bir yili milodiy shamsiy bir yildan 11 kun kam. Shu tufayli hijriy qamariy yil hisobi bilan bog'liq bo'lgan diniy marosimlar - ramazon, mavlud, haj safari, hayitlar milodiy yilga taqqoslaganda ko'chib yuradi. Ular har safar o'tgan yildagiga ko'ra 11 kun oldin keladi. Shu tariqa, har yili 11 kundan kamayib, milodiy yil hisobidan ortda qola boshlaydi. 33 yil mobaynida 363 kun ortda qoladi. Bu esa milodiy yil hisobi bilan deyarli bir yilga teng.

HIJRIYNI MILODIYGA AYLANTIRISH USULI:

Buning uchun hijriy yilni 33ga bo'lish kerak. Hosil bo'lgan sonni hijriy yildan chiqarib, songra 621 ni qo'shish lozim.

Buning formulasi quyidagicha:

$$H - (H : 33) + 621 = M$$

Masalan,

$$1443 - (1443:33) + 621 = M$$

$$1443 - 42,42 + 621 = M$$

$$1400,58 + 621 = 2021,58$$

Demak, 1443-yil 2021-2022 yillarga to'g'ri kelar ekan.

Milodiyni hijriyga aylantirish usuli:

$$(M - 621) : 33 + (M - 621) = H$$

Masalan,

$$(2022-621):33 + (2022-621) = H$$

$$1401:33 + 1401 = H$$

$$42,45 + 1401 = 1443,42$$

Demak, 2022-yil 1443-1444 yillarga to'g'ri kelar ekan.

Abdurahmon LATIPOV,
murabbiy.



O'zbekim
Adabiy, ilmiy-ma'rifiy
jurnal

MUASSIS:

Erkin Vohidov
nomidagi ijod
maktabi

Bosh muharrir:

Nigora
MANNOPOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Enaxon
SIDDIQOVA
Bahodir ISO
Gulchehra
ASRONOVA
Kamoliddin
MARASULOV
Mahmudxon
QO'CHQOROV

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Nilufar
ERGASHEVA, 10-sinf
Gulzoda
TURDALIYEVA, 10-sinf
Husnida
NE'MATOVA, 11-sinf
O'g'iloy
TOSHPO'LATOVA, 8-sinf
Elbek
MUHAMMADJONOV, 7-sinf

Tahririyat manzili:

Marg'ilon shahar,
Turkiston ko'chasi,
138-uy.

Bizni
@erkinvohidovmaktabi
telegram manzili
orqali kuzatib
boring.

RAMA



Barcha musulmonlar intiqib kutadigan, tashrif buyurganda ko'zlar quvonib, ko'ngillar yashnaydigan, qalblar orom topadigan farahbaxsh Ramazon oyi qanday oy? Ramazon so'zining ma'nosi nima? Uning tarixi, fazilatlari haqida nimalarni bilamiz? Ramazon oyining boshlanishi nega yilning bir xil vaqtiga to'g'ri kelmaydi? Shu va boshqa ma'lumotlar bilan quyida fikrlashamiz.

Ramazon oyi hijriy-qamariy yil hisobining to'qqizinchi oyi bo'lib, bu oy nomi islomdan avval ham mavjud bo'lgan. Ramazon so'zi arabcha "رَمَضَانَ" (ramad) so'zidan olingan bo'lib "qattiq isish", "qizish" ma'nolarini bildiradi. Arab tilshunoslari quyidagi fikrlarni bildiradilar:

1. Oylarga nom berilgan paytda Ramazon oyi yilning issiq paytiga to'g'ri kelgan.
2. Ramazon "kuydirish" ma'nosini ko'taradi, chunki unda gunoh-ma'siyatlar kuyadi.
3. Ramazonda "isitish" ma'nosi bor, chunki tosh quyoshdan harorat olgani kabi ramazonda qalblar mav'izalardan, ezguliklardan taft oladilar.

Ramazon oyining musulmonlar hayotidagi o'rnini, mavqei o'zgacha. Islomning muqaddas ro'za oyi bo'lgan Ramazonni butun dunyo musulmonlari 14 asrdan ko'proq vaqt davomida nishonlab keladilar. Ro'za tutish quyosh chiqqandan to botguniga qadar yeyish, ichishdan o'zni tiyishdir. Ramazon oyida

ro'za tutish hijratning ikkinchi yili joriy etilgan. Ro'za tutish nafaqat musulmonlarda, balki yahudiylar va nasroniylarda ham bor. Yahudiylar ro'zasi yilning har xil vaqtiga to'g'ri keladigan taxminan 25 kundan iborat. Nasroniylar ro'zasi turli davr, turli mintaqalarda har xil bo'lgan.

Ramazoni oyi oylarning sultonidir, chunki bu oyda Qur'oni karim nozil bo'lgan, unda bir kecha bo'lib, bu kechadagi ibodat, savobli ishlar ming oydan afzal deyilgan. Bu oy Qur'on oyi, taqvo va tavba oyi, rahmat va shafqat oyi, baraka va savob oyidir. Bu ro'za ibodatida riyo bo'lmaydi. Boshqa ibodatlarda biroq bo'lsada riyosi bo'lishi mumkin, namoz o'qisak hamma ko'radi. Zakotni yashirib bergan taqdirda ham zakot oluvchi buni biladi. Haj ibodati ham barcha biladigan ibodatdir. Ammo ro'zani Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Shuning uchun savobini Allohning o'zi beradi.

Ro'za tutish Alloh taolaga qilinadigan ibodatdir. Ro'za tutgan kishi hadsiz ajr-u savoblarga ega bo'ladi. Ro'za ulkan odob-axloq maktabidir. Ro'za nafs balosiga qarshi kurashdir. Kishi ro'za orqali hayotida duch keladigan mashaqqatlarga sabr qilishga o'rganadi. Eng asosiysi, ro'za tutish orqali inson omonatga xiyonat qilmaslik va maxfiy hamda oshkora holatlarda ham Alloh taolo uni kuzatib turishini his etishga erishadi.

Payg'ambarimiz (s.a.v): «Ro'za tutinglar, sog'lom bo'lasizlar», — deganlar. Ro'za har xil kasalliklardan xalos



BEGIM

bor edi-ku! Shunday emasmi?

Axir bizning hayosi hayotidan ustun momolarimiz bor edi-ku!

Shunday emasmi?

Axir, bizda odamiylik, mehr-oqibat, yurt qayg'usi, yel yukiga yelkadosh bo'lish oiladan qon-konimizga singib edi-ku!

Shunday emasmi?

Shunday.

Bizni o'z tariximizdan begona qildilar, millat ildiziga bolta urdilar, chinorlarimizni yiqdilar..

Xohlar edikki, bir farzand o'laroq, vatanning bitmagan jarohatlarini o'pib, malham sura olsak...

Xohlar edikki, bir farzand o'laroq, tuzlig'imizni oqlasak...

Xohlar edikki, bir avlod kelsa, o'zligini topolgan avlod...

Nigora MANNOPOVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi
direktori.



**Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lek avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.**



Sarvinoz TURSUNOVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi
11-sinf o'quvchisi

QODIRIY

Tunga cho'ktirilgan o'tgan kunlaring,
Falakning teskari zamonlarida.
Millatning tili-yu adabiyoti
Urushning eng so'nggi qurbonlaridir.

Balki yulduzlardan olisda edi
Buyuk ajdodlaring ko'zlagan cho'qqi.
Bugun yuksalishning kerak yanada
Urushdan qaytmagan qadamlar haqqi.

Sharafli iz qoldi bizga ulardan
Barham bermoq kerak qizil illatga.
O'zligin yo'qotgan minglab qullardan
Bir Qodiriy afzal buyuk millatga.



MILLATIMGA BIR QAROR

Kel ey millat, bir kun bir maslahat bilan qaror o'lsun,
Bu kundan o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun.

Qilaylik bul kuni hayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho'l sahrosida minba'd sabzavor o'lsun.

Bu nodonlik biza qilmish edi to'rt faslni qishdek,
Jahonni zimistoni do'nub fasli bahor o'lsun.

Ayashmay kumush-oltunni hamma boyonlar aslo,
Solib dorilfununlar ham makotiblar hazor o'lsun.

O'qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsun.

Ochayluk jami'atlar, ko'b yig'aylik ham inoyatlar,
Ki toki yatim va bechora bekasg'a mador o'lsun.

Necha chog'lar bo'lubdurkim, qochibmiz biz taraqqiydin,
Bu kun bir iltifot birlan bu yo'lg'a bir guzor o'lsun.


Jaholat sassig'i bizni hamisha behuzur etdi,
Bu kun ilmning bo'yi birlan dimog'lar mushkibor o'lsun.

Bizning johilligimizni ko'rib ul shod bo'lganlar,
Ko'rib mashg'uliyatimizni ilmg'a sharmisor o'lsun.

Kimikim jur'at aylab, bul kalomlarg'a amal qilsa,
Jahonda ismi ani pahlavon nomdor o'lsun.

Bu kun men so'zladim oz nutq siza to Qodir o'lguncha,
Ilohi aylasun ta'sir shu so'z sizga bakor o'lsun.

1915 yil



"IKKI ESHIK ORASI"

qiyinchiliklardan, dardlardan azob chekasiz, unga dalda bergingiz keladi. Romanda urush manzaralari Kimsan obrazida, xalqning front ortida chekkan mashaqqatlari Orif oqsoqol, Husan duma, Bashorat, Parcha va albatta "Qora amma" obrazlarida gavdalantirilgan, hamda unda mehr-muhabbat ila nafrat, yaxshilik va yomonlik doimo yonma-yon bo'lishi mahorat bilan tasvirlangan. Bashor opaning qizi Munavvar va Muzaffarning muhabbati uzoqqa bormasligi, orzu-umidlari puchga chiqqanligi, asarning kulminatsion nuqtasi ularning aka-singil bo'lib chiqishi kitobxonni o'ziga toldirib har tomonlama mushohada qilishga undaydi. Mening fikrimcha, asar bejiz „Ikki eshik orasi“ deb nomlanmagan. Asar boshida Muzaffar avtobusga chiqadi, birinchi eshik va asarda bo'layotgan hamma voqealar ana shu oraliqda ya'ni manzilga yetib borgunga qadar davom etadi. Tushib qolishi, ya'ni manzili esa ikkinchi eshik.

"Ikki eshik orasi" aslida ibtido va intiho, tug'ilish va o'lim orasidir. Bu oraliqni qanday, qay holatda bosib o'tish insonning o'z qo'lidadir. Axir bu dunyo ko'zgu, siz nima qilsangiz shuni sizga akslantiradi. Zero, shayx Topdiq Emro ta'kidlaganidek "Nimaniki izlasang Takkadan, Makkadan izlama! Qayt! O'z ichingdan izla!". Shunday ekan, barchamizning kirish eshigimiz ham, chiqish eshigimiz ham xayrli bo'lsin!

Saodatxon SULAYMONOVA,
11-sinf o'quvchisi





IMTIHON

Dars vaqti tugab, ayni imtihon boshlangan palla. Ustoz kirib imtihon savollarini tarqatdi. Vaqt ketdi...

Kimlardir qiynalib test ishlash bilan ovvora, yana kimlardir ko'chirish bilan... Axir bu insofsizlik emasmi? Afsuski, jamiyatimiz shunday insonlardan tashkil topib bormoqda. O'sha kungi aksariyat o'quvchilarning imi-jimida "oldi-berdi"lari buni isbotlab turibdi. Nihoyat, test vaqti ham tugadi. Hech qancha vaqt o'tmay imtihon natijalari chiqdi. Buni qarangi, ko'chirmachilik qilgan odam eng birinchi o'rinda turibdi-yu. Hamma jim bo'ldi. Lekin aytishmasa-da, hammasining mendek jahli chiqayotganini bilardim. Chunki bu hammaga qattiq alam qildi, juda ham qattiq... Yo'q, uning birinchi o'rinda o'tgani emas, «qiynalib ishlaganlarimning rohatini ko'rdim» degan gap-so'zlari qandaydir g'ashimni keltirardi. Shu vaqt turli savollar xayolimdan o'taverdi:

- Nima uchun biz birovning mehnatini o'g'irayveramiz?
 - Nima uchun biz yolg'onni chindek gapirishga odatlanib qoldik?
 - Nima uchun biz bundan uyalmay qo'ydik?
 - Nima uchun...
 - Nima uchun ko'chirmachilik oddiy holatga aylanib qolmoqda?!
- Shunday xayollar bilan quyidagi parcha yodimga keldi:

«Evoiki, imtihon shu qadar bo'lsa, Qiyomating qanday bo'lar, Xudoyim?»

Haqiqatdan ham, bugun ustozlarga yaxshi ko'rinish uchun, ehtimol, maktabdan haydalmalik uchun ko'chirib bo'lsa ham yuqori ball to'playapmiz. Lekin...Lekin bularga javob berish payti kelganida qiyomatda javob berolarmikinmiz?... Hadislarda keltirilishicha, riyokor qiyomatda to'rtta nom bilan chaqiriladi: «Ey riyokor, xiyonatkor, ey fojir, ziyonkor, bor, kim uchun amal qilgan bo'lsang, o'shandan ajr-mukofotingni olaver. Bizning huzurimizda sen uchun ajr yo'q» deyiladi. Agar biz shu holga tushib qolsak nima qilamiz? Axir imtihonda ham ustozlarga yaxshi ko'rinish uchun ikkiyuzlamachilik qilinadi-ku.

Ehtimol, siz uchun ko'chirmachilik katta muammo bo'lib tuyulmas, lekin men uchun juda ham katta muammo. Kattami, kichikmi o'g'rilik baribir o'g'rilik deyilganidek, bu ham ikkiyuzlamachilik hisoblanadi.

Rivoyat qilishlaricha, kimki odamlar ko'rishi va eshitishi uchun biror amalni qilsa, qiyomat kunida Alloh taolo uning buzuq niyatini fosh etadi va guvohlar huzurida uni sharmanda qiladi. Va yana Qatoda roziyallohu anhu aytadilarki: «Agar banda riyo qilsa, Alloh: «Bandam Meni masxara qilishini qaranglar», - deydi. Inshaalloh, Alloh barchamizni bunday insonlardan va shunday inson bo'lib qolishdan O'zi asrasin.

Ruxshona ODILJON QIZI,
10-sinf o'quvchisi

Omonat degan o'zbekona so'zga qalb qulog'ini tuting. Qanchalar teran insoniy tuyg'ular bor bu so'zda. U mulk haqida aytilsa birovning omonati, jon haqida aytilsa ollohning omonati. Banda uchun dunyo omonat, dunyo uchun bandaning o'zi omonat.

E. Vohidov
"So'z latofati"



MUSHTUM

BALOGARDONLAR...

XX asr o'zbek adabiyotiga nazar tashlar kanmiz, barcha yaratilgan asarlar ozodlik, hurlik mavzularida yozilganini ko'ramiz. Tarixdan ma'lumki, bu davrda ko'plab o'zbek ma'rifatparvarlari, adabiyotimizning yetuk darg'alari turli tuhmat-u bo'xtonlar bilan adabiyot chamanidan "yulib" olingan. Har qanday millatni bo'ysundirish uchun, avvalo, uning tarixini, ma'naviyatini yo'q qilish kerak. Shu sababli murakkab kuyib, yonib ijod qilgan Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir singari buyuk ijodkorlar eng og'ir azoblarga duchor etilgan. Biroq ham ma'nan, ham jismonan yetkazilgan azoblarga



Feruza ERKINOVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi
11-sinf o'quvchisi

Batqaldoq xo'ja: — Hoy eshon, biz ham endi ancha taraqqiy qilibmiz-a?!

Lo'kidon xo'ja: — Qayoqdan bildingiz?

— Xotunlarimiz nos o'rnig'a popiro's cheka boshlabdurlar.

— Qayoqda ko'rdingiz?

— Qayoqda ko'rar edim, sentralniy mo'nchada ko'rdim...

Shilg'ay
«Mushtum» — 1923 yil,
3-son, 7-bet

Biz jasorat so'rar edik, lekin berish qayerda?! Jasoratimizning qolg'an-qutqanini ham olmoq muddaosida edilar. Biz so'z erkinligi so'rar edik. Lekin tilimizni tek-tugidan kesmoqchi edilar. Jasorat bitkan edi, til kesilgan edi... Yuragimdagi bir oz umidni istisno qilg'anda boshqa narsalar yulqib-yulqing'an edi...

Ko'chada uchragan har bir yelkasi yang'irning choponini o'g'urlab olmoq odatim bo'lmag'ani uchun har kimga o'xshab bekorga kuchana bergim kelmaydir.

O'quvchi o'rtog'im, ma'luming bo'lsinki, man har vaqt saning ko'nglingga qarab jinnilik qila bermayman; qalam degan narsa ham o'qlog'i emas.

Julqunboy
«Turkiston» — 1923 yil, 1
fevral, 53-son.

qaramay, ularning hech biri ona yurtiga xiyonat qilmagan. Chunki ular ortlaridagi butun bir millat ularga qarab turganini, ularga xiyonat qilish o'zligidan kechish ekanini bilishgan. Jadidlarning jasorati, mardligi, jonkuyarligi sababli millatimiz hali-hamon yashamoqda. Bugungi kunda ham xalqimiz o'sha murakkab zamonlarda yaratilgan "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Mehrobdan chayon" singari nodir asarlarni qo'lidan qo'ymay o'qimoqda. Negaki yuragidagi jamiki dard-alamlarini, hurlikka bo'lgan intilishlarini yurak qoni bilan bitgan ma'rifatparvarlarning eng nekbin orzulari bu asarlarga singdirilgan. Bu kitoblar, shuning uchun ham, millatni uyqudan uyg'otish kuchiga ega. Baxtga qarshi bu kuchni mustabid tuzum ham tushungan va millatparvar jadidlarni yo'q qilgan. Biroq zamon zayli bir kun ularni o'zidan ulotirishini adiblarning o'zlari ham bilgan va bilib turib, o'z jonini mana shu "ko'zi qora, yuragi oq" el uchun fido qilgan. Ularning unutilmas xotirasi xalq oldidagi fidokorligi abadiy avlodlar xotirasida saqlanajak!



Bahromjon XUDOYBERDIYEV,

Erkin Vohidov ijod maktabi tarix fani o'qituvchisi.

MENKIM,

Тажрибамдан кўрилганким, азми қатъий, тadbиркор, ҳушёр, жанг кўрган, мард, шижоатли бир киши мингта тadbирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир.

O'z davrining ma'naviy va moddiy jihatdan yetuk oilalaridan biri, ya'ni Amir Taraq'ay Bahodir va Takina xotun oilasida dunyoga kelgan Temur yoshligidanoq ilm yo'lida tarbiya topgan. Qadimda va hozirgi kundagi ayrim tarixchilar tomonidan aytilganidek, Temur ilmsiz va johil kimsa bo'lganligi mutlaqo haqiqatdan yiroqdir. Boisi, Sohibqiron haqida o'z zamonasida u bilan birga yashagan va ko'rishgan kishilarning hamda uning huzuriga elchilik faoliyati ortidan tashrif buyurgan xorijliklarning guvohlik berishicha, Amir Temur yuqori ilmiy salohiyat sohibi bo'lgan. Masalan, yigirma bir yil davomida Misr davlatining bosh qozisi lavozimida faoliyat ko'rsatgan Al-Hofiz Ahmad ibn Alining "Ad-Durar al-komina fi a'yon al-miat as-somina" ("Sakkiz yuzinchi(hijriy)yil arablari haqida yashirilgan durlar") nomli asarida Amir Temurning

ilmga bo'lgan munosabati tog'risidagi mulohazalarni keltirib o'tamiz: "U (Amir Temur) o'z qissaxonlariga kecha-

AMIR

Ilm-fan va madaniyatning butun musulmon olamida yangidan gurkirab rivojlanishi Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Amir Temur Markaziy Osiyoda ilmiy va adabiy faoliyat uchun qulay sharoit yaratganligi tufayli hamda o'zi ham turli ilmlarga shaxsan qiziqqanligi sabab mintaqamizda tom ma'nodagi ikkinchi renessans shakllangan

TEMUR

edi. Bugungi maqolamizda biz Sohibqiron Amir Temurning ilm va ilm egalari bo'lgan munosabatini imkon darajasida yoritishga harakat qilamiz.

Я вас любил: любовь еще, быть может,
В душе моей угасла не совсем;
Но пусть она вас больше не тревожит;
Я не хочу печалить вас ничем.
Я вас любил безмолвно, безнадежно,
То робостью, то ревностью томим;
Я вас любил так искренно, так нежно,
Как дай вам Бог любимой быть другим.

А.С. ПУШКИН.



SALOM, TANSIQ BAHOR

Yana ko'k tubida sayraydi qushlar,
Yana yerda ko'hna yam-yashil ko'rpa.
Yana tandan ketti mudrash-u tushlar,
Yana yoshday dilda o'ylar ming turfa.

Gar ibora qadim, qofiya siyqa,
Ajddod bo'lmasligim haqiqati bu.
Bahor deding birdan olam charog'on,
Va senda eng yolqin, tirik bir tuyg'u.

Yoshingni, dardingni, iztirobingni,
Bir silkinish bilan otasan yiroq.
Xayoling yetmagan, umid tutmagan,
Eng yiroq ufqlar kelar yaqinroq.

HELLO, PLEASANT SPRING


Birds are singing in the sky, again
The ancient, green blanket is on the land, again
slumbering and dreams left from the body, again
several dreams are in the heart as young, again.

Although a phrase is past, a rhyme is old,
I would not be such an ancestor, it is trust.
the world is vibrant, «the spring» you told
And you have the best bright, alive sense.

Your age, your illness, your suffering,
You throw afar, once with shaking.
Your imagination snatched, hope caught,
The best far horizons will come closer.



Nozima IBROHIMOVA,
8-B sinf.



ZEBI, ZEBI...

Suzilma oy osmonda,
Sendan to'lin yuzlar bor.
Surxon degan tomonda
Oydan oydin qizlar bor.

Zebi deyman, Zebona,
Ishqingda men devona,
Bolalikda do'st qizlar,
Bo'yga yetgach — begona!..

Chog'im yetmas chog'lasam,
Oftob erir taftidan.
Kechagina xohlasam,
Suv ichardim kaftidan.

Zebi derdim, Zebona,
Ishqingda men devona.
Bolalikda do'st qizlar,
Bo'yga yetgach begona...

Na u menga elandi,
Na men unga qayrildim.
Do'stim unga uylandi,
Do'stimdan ham ayrildim.

Zebi dedim, Zebona,
Sevganim sen yagona.
Bolalikda sog' qizlar
Bo'yga yetgach — devona!..

Mukhammad YUSUF

Adhamjon G'AYRATOV,
8-sinf o'quvchisi

ABOUT ZEBI

The moon is in the sky,
You have full faces.
On the side called Surkhan
There are moon girls.

I say Zebi, Zebona,
I'm crazy in love,
Childhood girlfriends,
When they grow up, they are
a stranger!

When I don't have time
The sun melts.
If i want yesterdayw
I drank water from her arm.

I said Zebi, Zebona,
I'm crazy in love.
At childhood girlfriends,
Stranger when you grow up
...

Neither she licking to me
Nor did I turn to him.
My friend married her,
I lost a friend too.

I said Zebi, Zebona,
My love you are the only one.
Healthy girls at childhood
Growing up is crazy!



Translated by Nilufar HAYDARALIYEVA,
9-sinf o'quvchisi.



Мне нравится, что вы больны не мной,
Мне нравится, что я больна не вами,
Что никогда тяжелый шар земной
Не уплывет под нашими ногами.
Мне нравится, что можно быть смешной —
Распущенной — и не играть словами,
И не краснеть удушливой волной,
Слегка соприкоснувшись рукавами.
Мне нравится еще, что вы при мне
Спокойно обнимаете другую,
Не прочтите мне в адовом огне
Гореть за то, что я не вас целую.
Что имя нежное мое, мой нежный, не
Упоминаете ни днем, ни ночью — всуе...
Что никогда в церковной тишине
Не пропоют над нами: аллилуйя!
Спасибо вам и сердцем и рукой
За то, что вы меня — не зная сами! —
Так любите: за мой ночной покой,
За редкость встреч закатными часами,
За наши не-гулянья под луной,
За солнце, не у нас над головами,-
За то, что вы больны — увы! — не мной,
За то, что я больна — увы! — не вами!

Марина ЦВЕТАЕВА.

Oh, qanday yoqimli, sevmaysiz meni,
Eh, qanday yoqimli, sevmayman men ham.
Tor dunyo biz uchun ketmagay enib,
Va qanday yoqimli sevgisiz olam.

Oh, qanday kulgili – majnunvash inson
Yoriga so'zlarin tanlab aytmog'i.
Hamda menga qiziq – yeng tutashgan on
Qizarib ketmagay ikki yonog'im.

Tashakkurim sizga – qalbingiz bilan,
G'ayritabiiy holda muhabbat uchun.
Va bezovta bo'lmay tunlari birdan,
Ko'nglimda siz bergan halovat uchun.

Minnatdorman jonim, rahmat ming karra,
Sizni deb to'kilgan yosh uchun rahmat.
Oy qoshida o'lgan diyoringiz va
Azaldan bo'lmagan nur uchun rahmat.

Oh, ming afsus, nechun sevmaysiz meni?
Eh, ming afsus, axir sizni sevaman.

**10-sinf o'quvchisi
Ollohyor ERKINOV tarjimasini.**



kunduz mutassil ravishda tarixiy va diniy kitoblarni o'qitib, qunt bilan tinglar edi, basharti, qissaxon biror o'rinda xatoga yo'l qo'ysa, u uni shu zahotiyog tuzatar edi". Nazarimizda ulug' amir haqidagi Misr qozisining fikrlari g'oyat haqli va xolisdir. Sababi Amir Temur va Misr Sultoni Barquq xalqaro munosabatlarda mudom o'zaro raqobatda bo'lishgan. Misrdek davlatning bosh qozisi o'larog hayot kechirgan kishining raqib davlat rahbari to'g'risida bunday ijobiy tavsifi faqat va faqat haqiqatdan so'z ochadi. Bundan tashqari, asli kelib chiqishi Suriyalik bo'lgan, keyinchalik butun umrini jahon mamlakatlarini kezish bilan o'tkazgan tarixchi olim Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori Taymur" (Temur haqidagi xabarlarida taqdir ajoyibotlari) nomli asaridan olingan lavhalar ham Sohibqironning yuksak ilm sohibi va teran dunyoqarash egasi ekanligidan dalolatdir: "Amir Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q".

Chindan-da, Sohibqiron qachon va qayerda bo'lmasin uning huzurida ulamolalar, ilmiy ilohiyotchilar, faylasuflar, tarixnavislar, munajjim-u riyoziyot ilmining olimlari hozir-u nozir edi. Sohibqiron o'zining "Temur tuzuklari"da ta'kidlashiga qaraganda, davlat arkonining birinchi va ikkinchi toifalarida din va ilm egalari eng yuqori o'ringa qo'yilgan, ya'ni o'n ikki ijtimoiy tabaqaning birinchi o'rnida sayyidlar (payg'ambar avlodlari), olimlar va shayxlar tursa, ikkinchi o'rnida katta tajribaga ega ilmiy kishilar turgan.

Taqdir taqazosi bilan Shom yurti Temur qo'shini tomonidan ishg'ol etilgan pallada, Damashq shahrini amirga topshirish masalasida muzokara o'tkazgan guruh tarkibida mashhur arab olimi va tarixchisi Ibn Xaldun ham ishtirok etgan edi. Shu munosabat bilan shoh va olim o'rtasida bir qancha vaqt jonli muloqot bo'lib o'tadi. Suhbat natijasida ibn Xaldun Amir Temurning teran bilimidan hayratga tushadi hamda "U munozara va bahslarni yaxshi ko'radigan o'tkir zakovatli va teran zehnlil inson" deya ta'riflaydi. Bundan tashqari Temur suhbatdoshidan X asr boshida yashab o'tgan tarixchi at – Tabariyning qarashlari, uning fikrlarini qanday tushunishini va mulohaza etishini so'raydi. Suhbat yakunida esa Ibn Xaldun ulug' amirning zakovatidan hayratlanib shunday degan edi: "Azbaroyi Xudo, ey mavlono amir! Dunyo fathlarining kaliti bo'lgan qo'lingni menga bergin, men uni o'pish sharafiga muyassar bo'lay". Amir Temurning ilm va adabiyot sohasiga qiziqishi mavzusini mufassalroq ochmoq uchun Alisher Navoiyning "Majolis un – nafa'is"dan ham parcha berishni niyat qildik: " – agarchi nazm aytmog'ga iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'p mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qig'oni ming yaxshi bayt aytmog'ga bor".

Shu o'rinda suriyalik tarixchi Ibn ash-Shixnanning "Ravzat al-manozir fi axbar al-avoil va-l-avoxir" asaridan Sohibqironning teran tafakkuriga oid qiziqarli misolni keltirib o'tmoqchimiz. Rabbii ul-avval oyining o'n to'qqizinchisi, seshanba kunida (1400-yilning 7-noyabr sanasida) Halab olimlari va Amir Temur o'rtasida munozara bo'ladi. Mazkur munozarada Temur Halab olimlariga vositachi yordamida quyidagicha savol beradi: "Ularga aytgil, men ulardan Samarqand, Buxoro, Hirot va o'zim fatx qilgan boshqa mamlakatlar olimlaridan so'ragan bir masala xususida savolimni so'rayman. Lekin o'sha olimlar savolimga aniq javob bera olmadilar. Lekin nima gapirishni bilib gapirsin. Men doimo olim-u ulamolalar bilan aralash bo'lib, ko'p vaqtimni ularning suhbatlari-yu majlislarida o'tkazganman. Men azaldan ilm talabidaman. Kechagi jangda biz tomondan ham, siz tomondan ham o'lganlar bo'ldi. Ulardan qay birlari shahiddirlar? Bizning o'liklarimizni yoki sizlarnikimi?". Biz bu savoldanoq anglab yetamizki, Sohibqiron naqadar kuchli mulohaza va zakovat sohibi ekanligini. Shu vaqtda Halab olimlari uzoq vaqt jimlikdan keyin quyidagicha javob beradilar: "Payg'ambarimiz (s.a.v) huzurlariga bir arabiy kelib "Yo Rasulluloh! Bir kishi o'z sharafiga uchun urush qiladi, yana biri shijoat ko'rsatish uchun urush

qiladi, boshqa biri o'z qudratini namoyish qilish uchun urush qiladi. Shulardan qaysi biri Xudo yo'lida qurbon bo'lgan hisoblanadilar?". Shunda Tangrining rasuli: "Kimki tangrining so'zi hamma narsadan oliy bo'lishi uchun o'zini qurbon qilsa – ana o'sha shahid hisoblanadi". Olimlar shu javobni beradilar va ulug' amir javobdan qanoat qilib, ular bilan ochiq va iliq munozaraga kirishib ketadi. O'z davrining yetuk muarrixlaridan biri bo'lgan Sharafiddin Ali Yazdiy ham o'zining mashhur "Zafarnoma"sida Amir Temur haqida "U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatda madaniyat va san'atning gullab-yashnashiga erishish edi" deya e'zozlagan edi.

Sohibqironning shaxsiy xarakati va intilishi natijasida bundan yuz ellik yil muqaddam mo'g'ul armiyasi tomonidan butunlay yakson qilingan Movarounnahr ilmiy muhiti va ilmiy jamoatchiligi qayta uyg'ona boshladi. Amir Temur qay yurtga bormasin, qaysi xalq hayoti bilan tanishmasin, albatta ulardan nimanidir o'zlashtirgan va o'z yurtiga tatbiq eta olgan edi. Uning davrida Movarounnahr, Xuroson, Eron, Iroq, Hindiston hamda ayrim arab o'lkalarining madaniyatlari Samarqandda jamlangan ediki, natijada yurtimiz yana bir karra sharq renessansiga beshik bo'lgan edi. Bu masalada "Temur turli madaniyatlarni qo'shib, bugungacha yashab kelayotgan Yevroosiyo g'oyasini shaxsan ishlab chiqqan shaxs edi" deganida amerikalik tarixchi Richard Nelson to'laonli haq edi.

Shu o'rinda maqolamizga so'ngi so'z sifatida ingliz dramaturgi Kristofer Morloning "Buyuk Temur" dramasi-dagi "Doimo ilm ortidan quvish, insonga baxt-saodat keltiradi" kabi so'zlari qo'llar ekanimiz, Amir Temurning shonli hayotida ilm va unga bo'lgan yuksak e'tibordan o'zgacha iftixor va mamnuniyat tuyamiz. Istaymizki, jannatmakon yurtimizdan hamda biz yoshlar orasidan yana va yana sohibqirondek mard va buyuk insonlar yetishib chiqsin, vatanimiz esa uchinchi sharq renessansiga oshiyon bo'lsin!



YAXSHILAR BOR, YAXSHIYAM



-Xalqona tilning adabiyotdagi o'рни, sizningcha, qanday?

-Bu juda kerak! Chunki har bir asar xalq uchun yaratiladi. Bunda jamiyat o'zini topa bilishi, anglashi kerak.

-Sizningcha, shoir yaxshi ijod qilishi uchun kasbining ahamiyati bormi?

-Albatta! Kasb bunda katta ro'l o'ynaydi. Boshqa hunarlarda bo'lganidek, adabiyotning ham o'z qonun-qoidalari bor. Ijodkor adabiyot sohasida o'qigani ma'qul.

-Ustoz, bizga ma'lumki, siz Muhammad Yusuf bilan ham bir safda xizmat qilgansiz. Shoirni eslaganingizda dastlab u haqidagi qaysi xotira yodingizga keladi?

-Muhammad Yusuf bilan harbiy xizmatda tanishganmiz. Qalbimiz tanishgan. Suhbatlarimiz maroqli bo'lgan. Oilasi bilan ham aloqalarimiz yaxshi bo'lgan. Uni eslaganimda avvalo qizlarini jonidan ortiq suygan otani xotirlayman. To'g'riso'zligini judayam qadrlayman. Haqiqiy ijodkor bo'lsa shunday bo'lsin-da!

-XXI asr she'riyatining yutuqlari qanday va kamchiliklarini nimada ko'rasiz?

-XXI asr adabiyoti hali o'z bahosini olgani yo'q. Odatda, bugunning bahosini ertaga berishadi. Adabiyot vakillari ko'payyapti. Saralashga imkon yaralyapti. Eng muhimi shu!

-Mazmunli suhbatangiz uchun rahmat, ustoz.
-Jurnal faoliyatiga omad tilayman.

-Assalomu alaykum, ustoz. Yosh ijodkorlarning sizga bergan savollariga javob berayotganingiz uchun rahmat.

-Vaalaykum assalom. Men bundan faqat mamnun bo'laman.

-Demak, sizga birinchi savolimiz: Ustoz, sizningcha, adabiy tanqidning nazmdagi o'рни qanday?

-Umuman olganda tanqidni bizning davrda (SSSR paytida) qoralash degancha tushunilardi. Masalan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlarda bu juda ko'p kuzatilgan. Ayniqsa, Erkin Vohidovni taniqli tanqidchi Norboy Xudoyberdiyev aruzdagi asarlarini judayam qattiq tanqid ostiga olgan. Hozir bunaqa narsalar yo'q. tog'ri, adabiyotshunoslikka, umuman, adabiyotga aloqasi bo'lmagan kishilar, muxlislar gapirishi mumkin, U yaxshi yozadi, bu yomon yozadi deb, lekin u adabiy tanqid emas. Bunda tanqidchi gapirgan gapiga javob berolishi, isbotlab berishi kerak. Shunda haqiqiy tanqid bo'ladi, o'sish bo'ladi!

-Ijodkor uchun tabiatdan boshqa ilhom manbalarini qanday tasvirlaysiz?

-Ijodkor uchun faqat tabiat ilhom manbai emas. Avvalo, jamiyat, o'ziga o'xshagan odamlar uning ilhomlantiradi. Biri xursand qilsa, biri ranjitadi – she'r kayfiyatiga ta'sir etadi.

-She'riyat homiysi, umuman adabiyot homiysi sifatida dastavval nimani qalamga olishni tavsiya qilasiz?

-Bunga bir narsa deyish qiyin. Ijodkorni cheklab bo'lmaydi. Ammo iloj boricha, adib jamiyat bilan qusurlashishi kerak. Qanday mavzu bo'lmasin, to'g'ri gapni aytish kerak.

**Erkin Vohidov
ijod maktabi
9- sinf
o'quvchisi
Muslimaxon
TOHIRJONOVA
suhbatlashdi.**



ENG KATTA ORZU



u harakatni hozir boshlashi lozim. U qishlog'i tomon yo'l oldi...

Farg'onaning yo'llari juda go'zal. Ayniqsa, Oltiariqning uzumlari, Rishtonning kulolchilik buyumlari, Quvaning anorlari unga o'zgacha chiroy beradi. U shunday o'ylar bilan Furqat tumaniga kirib bordi. Qizil qiyoch qishlog'i ham juda go'zal! Faqat bu go'zalikka yana ozgina ilmiy, ma'naviy, madaniy go'zallik qo'shish kerak. Shuning o'zi yetadi.

Aslida bu – mening ko'nglimdagilar. O'ylaganlarim bundan ham ko'p, lekin vaqt chegaralangan. Baribir orzumni aytaman. Mening orzum – qishlog'im shunday bo'lsin-ki, uning oldida manaman degan shaharlar ham ko'zga ko'rinmay qolsin!..

**Ibodatxon NOSIRJONOVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi
7-sinf o'quvchisi**



"Assalomu alaykum, eng shirin damlarim-u xotiralarim makon topgan joy! Mening kitoblardek eng yaqin do'stim, sirdoshim, omonmisan? Bilasanmi, men seni qanchalar yaxshi ko'raman! Ha, aytgancha, "Katta chinor", "Ko'kdo'ppiariq" yaxshimi? Ishqilib Ko'kdo'ppiariqqa bolalar tushib ketmayaptimi? Ha mayli, o'zing yaxshi bo'lsang bo'ldi. Menga shuning o'zi yetarli. Gapirsam gap ko'p. Voy, esimdan chiqibdi. Uydagilarim, qo'shnilar yaxshimi? Ularga mendan salom aytgin. Ko'rishguncha, mening ona qishlog'im – "Qizil qiyoch"! Maktab ham o'z nihoyasiga yetdi. O'ylab ko'rmagan ekanman: shunday yaxshi qishlog'im bor-ku, lekin uni yuksaltirish uchun hech harakat qilmabman..."

Xo'sh, qachon qiladi u bu ishlarni? Katta bo'lishni kutib o'tiradimi? Yo'q,



QUSH UYASI

...-Abror, joyiga qo'y!

-Ha, nima, aqllilik qilma!

-Akanman axir.

- Mayli, indama, hali yosh-ku...

-Buvi, yosh deb taltaytirmang.

Ukam menga qarab qoshini chimirdi...

Kecha mehmonga bordik.

Abror yana shu odatini qildi.

Mehmonlarning «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganlari shudir-da" deb, pichirlashganini eshitib, buvimga qaradim. Ular ham eshitdilar chog'i, loladek qizarib ketdilar...

**Behro'z MO'MINOV,
Erkin Vohidov ijod maktabi
8-sinf o'quvchisi.**

Akam ko'zlari katta-katta bo'lib oq-qora kiyimni qo'ltiqlab dadamning ketidan chiqdi. Biz esa buvim bilan tosh qotib qoldik.

- Chop! Chop deyaqman! - degan dahshatli ovozdin o'zimizga kelib tashqariga tomon otildik. Dadam... Dadam akamga yangi jempelni o'tin yoriladigan to'nkaga qo'ydirib, mayda-mayda bo'laklarga bo'lib boltalatyaptilar... Akam qo'llari titrab, o'pkasi to'lib o'z qo'llari bilan...

Dadam meni yoniga chaqirdilar :

- Kamron! Sen akangga o'xshama! Ko'ryapsanmi, ona! Ko'ryapsanmi, o'g'ay baribir o'gay-da... Meni bitta o'g'lim bor. Buyam bo'lsa Kamron!..

O'shandagina dadamning og'zidan kelayotgan, ko'ngilni behuzur qiladigan hidni sezdim... Aroq ichibdilar... Yana!..

Akamni ham bir nima qilib qo'yadilarmi deb qo'rqdim... Onamni... Xuddi bir paytlar onamni...

Hamma narsaning chegarasi bo'lsin, lekin mehr-muhabbatning emas!.. Insoniylikning chegarasi bo'lmasin ekan!..

Qulog'im ostida hanuz "taq-taq" degan ovoz...

Qizil, sariq, yashil – yo'l ochiq. Rulni qabriston tomonga burdim. Ish bo'laveradi, bugun shunday qilishim kerak.

Hafta davomida yerdagi g'uborlarni yuvib charchamagan yomg'irdan so'ng yaxshi odamlarning qabri ustiga qizg'aldoqlar to'shalibdi...

Quyoshning zarrin nurlari hech qanday chegaraga parvo qilmay borliq uzra to'kilayotir.

**Odinaxon XALILOVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi 11-sinf o'quvchisi.**

QOQIGUL



Bahor... Yerga sabza kabi yoyilgan qoqigullar odamni bahri dilini ochadi. Qizcha qo'lida o'zidan kattaroq chelakni olib suvga jo'nadi. Bu sarg'imtir gullar unga nimalarnidir eslatar va u ichida handon, tashida esa miyig'ida kulardi. Endi u ulg'aygandek go'yo. Uydagi uch-to'rtta ertak kitob uni ulg'aytirgandek... Sal oldin u qiziqib bir ertak o'qir, mahalladagi bolalarning shovqini unga yoqmasdi. Shuning uchun, oyisining suv keltirish iltimosini keyinga, ya'ni bolalar ovozi tinishiga qoldirdi. Lekin bu baqir-chaqir hali-beri tinmaydi-yov!

Nimadir bo'lib, ular uylariga chopishdi. Tushlik vaqti... Nihoyat!..

Qizcha suv keltirishga shoshdi. Lekin, o'zidan ranjib ketdi. Bunday bahor ifori anqigan, yashil maysalar nish urgan tabiatni ko'rgisi kelmagligidan o'zini o'zi koyidi. Yaxshi ham suv bahona bo'lgani, aks holda bu go'zallikni qoidadek yodlab, ertakda yoki tushda ko'ramidi...

Hali aytganimdek, u kulardi. Tavba!... Uyi yonidagi hali bino solinmagan ochiq yerlar kechagina chakalakzor edi, egalari qo'ldan kelganча tozalashgandan keyin to'y tashvishlari

bilan ovora bo'lib, yodlaridan ko'tarilgan, hozir o'sha yerlar maysazorga aylangan edi.

..Bir-ikki yil avval, qizcha yoshligida (xuddi hozir kattadek!) sariq va yashil baxmal maysazorlarda yugurishni yoqtirar, qo'llarini sarg'aytirib gullar terardi. Bu unga yoqardi. Ammo, bir kuni shu yonidagi uydan gulchambar yasash uchun gul terardi va shu qadar qiziqib ketib, dala tomonga ham o'tib ketib qoldi. Kech tushgan, oyisi uni qidirardi. Yig'i ovozini eshitib yugurdi va axiyri qizchani topdi. Bechora ona qo'rqib ketganidan avvaliga bir tarsaki tushirib, so'ng bag'riga mahkam bosgandi o'shanda.

Qiz shundan beri sarg'imtir gullarni yomon ko'rardi. Bugun yana ularni yaxshi ko'rib qoldi. Shundan beri har bahor bir marotaba o'sha yerlarni aylanib chiqar, endi adashmas (aytdim-ku u ulg'aygan deb) va bahor go'zalligidan mahrum bo'lmaganidan mamnun edi.

**Mohinur LUTFULLAEVA,
Erkin Vohidov ijod maktabi
8-sinf o'quvchisi**



CHEGARA

Zamharir kunlarning o'rnini mehr-muhabbat tafti egalladi. Uch oy davom etgan ayriqliq soatlaridan so'ng yorining jamolini ko'rishga oshiqqan sho'x, o'ynoqi soy majnunolning o'rim-o'rim sochlaridan tortib qochdi. Ko'zlari sevinchdan porlagan, egnida atlas-u adraslari yaraqlagan qizlarning etaklari ko'klam shabbodasiga monand nafis raqs tushdi. Demak, bahor keldi...

Katta yo'l. Erta tongdan ishga o'tlanaman. Yashil, sariq, qizil... To'xtash kerak. Ochig'i shu yo'l belgilarini-yu turli tuman hayot chegaralarini yirtqich hayvonlar o't yeyishni xohlamagani kabi men ham ularga amal qilishni istamayman. Ammo bu qonun-qoidalarga bo'ysunmaslikning iloji yo'q, ixtiyoriy-majburiy, ya'ni ixtiyor etishga majbursan. Nega hayotimizni bunday chegaralar bilan boyitishga ustamiz? Xayolimni "taq-taq" degan qattiq tovush qoq o'rtasidan chopib tashladi. Qarasam, bir tilanchi lo'li bolakay mashinam oynasini urib, sadaqa so'rayapti. "Taq...taq...taq..." Yuragim "duk-duk" urish o'rniga "taq-taq" deb menga olis bolalik yillarimdan qolgan og'riqlar haqidagi rekviemni ijro eta boshlayotganday...

...O'sha yilgi qish juda qattiq kelgan edi. Men taxminan oltinchi kuzim bilan xayrlashgan bo'lishim kerak. Aytganimdek, kunlar sovuq, yo'qchilik qorlari boshimiz uzra muttasil yog'ar, ko'chadagi tugul, hovlimizdagi qorni

kurashga ham yaroqli odam topilmaydi. Akam maktabga boradilar. Buvim unga issiq kiyim-bosh olib bermasa bo'lmaydigan.

Hafta oxirlariga borib biroz quyosh charaqlaganday tuyuldi, buvimning pensiya pullari chiqdi. Ular dadam bilan akamni bozorga jo'natar kanlar: "Pufayka olib bergin, ortganiga Kamrongayam qo'shib biror issiq buyum ol" - dedilar. Kun bo'yi ortib qolish ehtimoli bo'lgan pul va menga olinajak «biror issiq buyum» haqidagi o'ylar bilan band bo'ldim. Kechga yaqin kirib kelishdi, lekin negadir akamning ustida hech qanday fufayka yo'q, balki chet el kinolarida bo'ladigan turmadagi mahbuslarniki kabi oq-qora yo'llari bor jemper.

- Pensiyangiz bor-yo'g'i shunga yetdi, - dedi dadam va qovoqlari osilganча ko'chaga chiqib ketdi. Buvim negadir dadamga ishongisi kelmadi, shuning uchun bo'lsa kerak, akamning oldiga olib obdon so'roq qildi. Natijada, buvimning ko'nglini kemirayotgan shubhalar to'g'ri bo'lib chiqdi. Anchagina pul ortib qolgan... Uyda o'tin yo'q, muzlagan sandal atrofida hammamiz g'aribgina kechki ovqatni tanovul qilayotgan edik. Shu vaqt dadam kirib keldilar-u, buvim ortgan pul haqida qayta-qayta so'ray boshladilar.

- Jontemir!!! - deb baqirdilar dadam.

Akam dik etib o'rnidan turib ketdilar.

- Jempelni olib, men bilan ko'chaga! Bo'l tez!!!

XOLIS XIZMAT

Bu - kamayib ketgan bir narsa,
Endi qaytib kelmaydi tobga.
Saqlash uchun, ja nari borsa,
Yozish mumkin "Qizil kitob"ga...

OJIZ BANDA

Yurgan yo'limni ko'rdim -
G'ij-g'ij gunohu xato...
Endi nima ham derdim,
Kechir deyma-da, Xudo...

YOLG'ON

Yolg'on o'zi yo'q narsa, lekin
Bor narsaga aylandi sekin...
Endi to'lib barcha og'izga,
Xo'jayinlik qilyapti bizga...

TIRIK ODAM

Tirik odam juda murakkab,
Kirishi ham mumkin yurakka.
Bir kun esa tanangga yotday
Chiqishi ham mumkin fasodday...

ASOSLI HADIK

Quloq bo'lsa agar devorda,
Demak, uning tili ham bor-da...

UNUTMA

O'zingni "zo'rman" deb o'ylasang qay on,
Bilginki, yelkangga minibdi Shayton...

Gapdon bo'lib ketsa butun yurt,
Donishmandlar saqlaydi sukut.

Turkiy xalqlarning ko'rgiligi shundaki,
qadimgi turk yozuvi yo'qolib ketgan.



TUN

Makkor jinlar hiylasidek qing'ir ko'cha,
Menga hamroh bo'ladi tun — yaqin do'stim.
Faqat o'sha qaro tunda yecha olgum,
Hislarimga kishan bo'lgan odam po'stin.

Men bo'riman,
Oy talashib urishaman osmon bilan
Izg'ib yurish-taqdirimga bitilgani.
Malaklarga qiron berdim, bugun esa
Ular tuzoq qo'yar mendan qutilgani.

MENI ASIR ETGAN SOHIR SHE'RIYAT



Meni asir etgan sohir she'riyat,
Asirman, qamog'im bu kutubxona.
O'ylardim bo'lurman mashhur, badavlat,
Bir she'r jinnisiga aylandim, ona.

Tashbeh, sarlavhalar suzar qonimda,
Aslida she'riyat hayotim mening.
Ijodimga ulkan zafarlar tilab,
Tushlarimga kirar Sergey Yesenin.

Endi menga farqsiz, menga baribir,
Atrofimda to'la dushmanlar chirkin.
Bu dunyo aslida bir kitob ekan,
Uni kimdir o'qib tugatarmikin?


Meni asir etgan sohir she'riyat,
Asirman, qamog'im bu kutubxona.
O'ylardim bo'lurman mashhur, badavlat,
Bir she'r jinnisiga aylandim, ona.

YOMG'IR

Suv kiradi oyog'imdan
Suv chiqadi ko'zlarimdan.
Yuraginga isyon kirib
O't chiqadi so'zlarimdan.
Va shu o'tni o'chirmoq-chun
Yomg'ir yog'ar, yomg'ir yog'ar.
Bilmam nedan titrar tanim
Osmon edi chin vatanim.
Kesilgandir qanotlarim
Tomog'imni erkka bo'lgan
She'rga bo'lgan chanqoq bo'g'ar
Shu chanqoqni bosmoq uchun
Yomg'ir yog'ar, yomg'ir yog'ar.
Dunyo azal kirlangandir
Mening hissam yo'qdir bunda.
Kunduz kunda orif bo'lib
Kofir bo'lgan ko'pdir tunda.
Gunohlardan xo'p qoraygan
Cho'miladi go'dak tog'lar
Yomg'ir yog'ar, yomg'ir yog'ar.

Akmaljon
ABDURAHMONOV,
Muhammad Yusuf
nomidagi ijod maktabi
10-sinf o'quvchisi

Стив Жобс. Уолтер Айзексон



IQROR

Sodda qishloqlikman adashib yurgan
Shahar ichidagi egri ko'chada.
Sham yoqib kutmoqda ma'sum parvonam,
Sog'inchdan qurilgan pastak uychada...

Ona, men qaytaman bolaligimga,
Menga yo'l ko'rsatar issiq non isi.
Ana ko'rayapman jajji qizchani
Tuproqli ko'chadan ketmabdi izi.

Buvim, kavushimni saqlab o'tirgan
Iroqi do'ppimga qadab ko'zmunchoq.
Ulg'ayding demanglar, ulg'ayganim rost,
Yurak bolalikda yashaydi biroq.

Sodda qishloqlikman adashib yurgan,
Shahar ichidagi egri ko'chada.
Ulg'aydim hayotda ulg'aymadi yo'q —
Bolaligim yashar ko'ngil uychamda...

MEN

Ming yillarday sovirdim men
Ming kuy ila taraldim tinmay.
Ne kelsa ham boshimni egdim
Bekinmay.

Oppoq osmon bo'ldi ko'nglim goh
Yomg'ir yog'di ko'zyoshga to'lib.
Yerga tushdim osmonlarimdan
Bo'linib...

Men kimligim endi angladim,
Bir baxt bo'lib taraldim tinmay.
Ne kelsa ham boshimni egdim,
Bekinmay!

TOSH

Bag'ring tilgan tikon bo'lmadi,
Yuragingni ezmani hislar.
Sen o'zingni shunday aldading,
Men bariga ko'nikdim, esiz.

Yo'q, sen hanuz ko'nikolmading,
Yasholmading barcha kabi bir.
O'zgarmading hayotda yashab,
Seni shunday yaratgan taqdir...

MAZMUNLI HAYOT

Kiprikka osilib bormoqda hayot,
Tong otar..
Mazlum tong qayg'uga botgan.
Va yoki quvonchga to'lib borar ufq,
Kimnidir dard, balki, baxtlar uyg'otgan..
Uyg'onish — tiriklik, borliqni sezmoq,
Muvozanat, umr va chalkashlik hissi.
Har kun kimlargadir a'za, fojia,
Va yoki tug'ilmoq... Bola yig'isi..
Dunyoni larzaga solmoqlik shartmas,
Shunchaki hayotda bor bo'lsin mazmun.
Bor bo'lsin natija, bor bo'lsin maqsad,
Hayotdan ketmaylik bemazmun, beun.
Shunchaki yashamoq azaliy qiynoq,
Kishan solib qo'ymang o'z-o'zingizga.
Baxtli bo'lmoqlikning eng oson yo'li,
Dunyolarni jamlang qalb ko'zingizga...

Menimcha shugina mazmunli hayot..!

Nozima
MAMATQULOVA
Erkin Vohidov
ijod maktabi
11-sinf o'quvchisi

